

**"YOSHLAR SPORTIDA YANGI YONDASHUVLAR: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2024-YIL 18-DEKABRDA QABUL QILGAN PQ-443-SONLI QARORI."**

*Shohrux Toshpo'latov*

*Toshkent viloyati adliya boshqarmasi*

*Huquqiy axborot sho'basini boshlig'i*

O'zbekistonning jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishda yoshlarni sport bilan muntazam shug'ullantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning jismoniy rivojlanishi va ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, nafaqat davlatning sport siyosati, balki xalqaro miqyosda raqobatbardosh va salomatligi yuqori yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan bir qancha tashabbuslarni talab etadi. Bu yo'nalishda Prezidentimizning yangi qarori nafaqat sport maktablarining faoliyatini takomillashtirish, balki yoshlarni muntazam ravishda sport bilan shug'ullanishi uchun zamonaviy infratuzilma yaratish, yangi sport turlarini rivojlantirish va ixtisoslashgan maktablarni tashkil etishga ham qaratilgan.

2024-yil 18-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-443-sonli qarori yoshlarni sport bilan shug'ullanishini qo'llab-quvvatlash va ularning sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan bir qator yangiliklarni o'z ichiga oladi. Qarorda quyidagi asosiy masalalar ko'rsatilgan:

- Jismoniy tarbiya va sport kuni:** Sport vazirligi va hududiy hokimliklar tomonidan har payshanba kuni jismoniy tarbiya va sport kuni sifatida belgilanishi nazarda tutilgan. Bu yoshlarning jismoniy faolligini oshirishga xizmat qiladi.
- Sport maktablarini ixtisoslashtirish:** Hududlarning sport ehtiyojlari va sport infratuzilmasi asosida sport maktablarini sport turlariga ixtisoslashtirish amaliyoti joriy etiladi. Bu, o'z navbatida, yoshlarni sportning muayyan turlari bo'yicha chuqur o'qitish va malakali sportchilarni tarbiyalashga imkon yaratadi.
- Mahalla va ommaviy sport:** Sport maktablarining ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya bo'yicha faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan. Trener-seleksionerlar mahallalardagi yoshlarni sportga jalb etishda, sport tadbirlarini tashkil qilishda faoliyat yuritadilar.
- Sport infratuzilmasi:** 2025-yildan boshlab sport inshootlari reyestrini yuritish tartibi joriy etiladi. Bu sport inshootlarining samarali va maqsadli foydalanishiga imkon yaratadi.
- Elektron boshqaruv tizimlari:** Sport vazirligi "Face ID" tizimi va "ERP-Sport" elektron boshqaruv tizimlarining o'rnatilishi orqali sport maktablarining faoliyatini va trenerlarning ish haqlarini monitor qilishni rejalashtirmoqda. Bu

tizimlar sport sohasida raqamlashtirishni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Qarorda sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktablari ro'yxati tasdiqlangan. Ushbu maktablarda yoshlarni maqsadli reja asosida sport turlarida ta'lim olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan. Har bir hududda ixtisoslashgan sport turlari ro'yxati mavjud bo'lib, bu sport turlari mahalliy ehtiyojlarga qarab, sportning yangi yo'nalishlariga yo'naltiriladi. Masalan, Nukus shahridagi sport maktablari erkin kurash va voleybolga ixtisoslashgan, Andijon viloyatida esa suzish va stol tennisi rivojlantiriladi. Bunday yondashuv har bir hududning sport infratuzilmasi va yoshlar qiziqishlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, qaror bo'yicha jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tashkilotlar reyestri shakllantiriladi. Bu reyestrda sport klublari, fitnes markazlari, sport ta'lim tashkilotlari va boshqa sport tashkilotlari kiritilishi mumkin. O'rnatilgan elektron boshqaruv tizimida sportchilarni ro'yxatdan o'tkazish va sport maktablari bilan hamkorlik qilish tartibi aniqlanadi. Bu o'z navbatida, sport sohasini raqamlashtirishni va uning samarali boshqarilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-dekabrda qabul qilgan PQ-443-sonli qarori yoshlar o'rtasida sportni rivojlantirish va ularni muntazam sport bilan shug'ullanishga rag'batlantirishda muhim qadam hisoblanadi. Bu qaror jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, sport maktablarining faoliyatini takomillashtirish, yangi sport turlarini rivojlantirish va yoshlarni sportga jalb qilishda samarali vosita bo'ladi. Elektron boshqaruv tizimlarining joriy etilishi, sport turlariga ixtisoslashgan maktablar va sport infratuzilmasining samarali ishlashi orqali O'zbekistonning sport sohasi yangi darajaga ko'tariladi. Shuningdek, bu qaror xalqaro miqyosda O'zbekistonning sport sohasidagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonuni, 2015-yil 4-sentabr O'RQ-394-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2024 yildagi PQ-443-son Yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish to'g'risidagi qarori